



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No6
MAXSUS SON



BAKALAVR TALABALARINIG MAQOLALARI TO'PLAMI



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Elektron nashr. 214 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil mayda ruxsat etildi.

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayeich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Viktorovna, Candidate of Economic Sciences (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 28-fevraldagi
333/5-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Strategies for achieving sustainable growth through green economy transition.....	14
Umida Kakhramonova Gayratovna, Tillayev Khurshidjon Sulaymon oglu	
Current state and development prospects of tourism: comparative analysis and Uzbekistan's experience.....	20
Risolatbonu Shakhzodova, Laziza Khalilova, Nabijonov Biloliddin, Aziza Usmanova	
Инновационные подходы к повышению эффективности корпоративного управления.....	26
Тлеумуратова Мадинабону Дилмурат кизи, Уринов Бабур Насиллоевич	
Startup проекты и их реализация	30
Ёдгорова Мухайе Шухратовна, Иминова Наргиза Акрамовна	
Methodology of Teaching English: Traditional and Modern Approaches	34
Ravshanova Ziyoda Qahramon Qizi, Xoliqova Dilafruz Shuhratovna	
Государственный кредит и государственный долг.....	37
Срождиддинова З.Х., Тухтасинова Д.Н.	
Сравнительный анализ реформ государственных финансов в Китае и Грузии: уроки для Узбекистана	42
Срождиддинова Зарина Хайриддиновна, Шарифзода Мубина Дилмуроджон кизи	
Korxonalarda asosiy vositalar hisobini yuritishni takomillashtirish	49
Shakarov Shahzod Sobir o'g'li, Po'latov Xudoyberdi Uktamovich, Esanov Oybek Madatovich	
Sustainable consumption and production: economic challenges and solutions.....	55
Abdullayev Abdug'ofur, Abdubaxromov Abduazim, Eshniyozov Ozodbek, Azizbek Abdullayev	
Traffic congestion in Uzbekistan: causes and strategic solutions	60
Abdulloh Qodirov, Imron Egamberdiyev, Isomiddin Ravshanov, Munisa Bekmirzayeva	
The relationship between corruption and economic growth.....	64
Jurayev Jo'rabek, Abdullayeva Aziza, Mamatova Sarvinoz, Maha Ibrahim	
Crisis management in the tourism industry	74
Ikromova Munisa, Bahodirova Mohigul, Xalimova Dilbar, Abdullajonova Muslimabonu	
Impact of the touristic indicators on the poverty rate.....	80
Abdumanova Maftuna, Azizova Ruhshona, Shavkatova Mubiyabonu, Durdona Bahodirova	
Bringing sustainability: the role of the green economy in enhancing resource efficiency	91
Salokhiddinova Farangiz, Mardonov MuhammadYusuf, Shovkiyeva Munisa, Ahmadova Xurshida	
The relationship between innovation and environmental emissions.....	98
Mamadiyeva Ruxshona, Nurullayev Asliddin, Abduraimov Sardor Anvar o'g'li, Aysayeva E'zoza	
Green finance unlocked: innovations, challenges in Uzbekistan's perspectives.....	107
Dildora Khodjaeva Mukhamedkhodjaevna, Jamolova Madina Talgatovna, Lola Qidiralieva Ulug'bekovna	
Turning the tide: how Uzbekistan can tackle its water crisis	115
Rixsiboyev Mirhaydar, Orazov Kamron, Baratov Shakhriyor, Bahromjon Urmanov	
Drivers and losses of economic development of Tashkent: a desk study.....	125
Zaribbaeva Komila Ulugbek qizi, Durdona Davletova	
The digital economy in Uzbekistan: challenges and opportunities.....	133
Ro'zmatov Asror, Bo'riyev Javohir, Safarov Habibullo, Mubina Toirova	
Analysis of water consumption in Uzbekistan	139
Rayimjonova Gulsora, Sarvinoz Murodova, Yahyoyeva Nurhayo, Durdona Zaynutdinova	



Global leadership and cross-cultural management: an empirical analysis of intercultural communication competence (icc) in uzbekistan	144
Dr. Eka Surchman, ST, MT, Annisa ciptagustia, SE, M.SI, Abdurakhmanova Iroda Gulmurod qizi	
iqtisodiy masalalarni matritsa nazariyasi asosida modellashtirish va python dasturlash tilida yechish	154
Tojiyev Ilhom Ibraimovich, To'rayeva Feruza Dilmurodovna, Namozova Barchinoy G'ayrat qizi, Baxronova Zuhra Otaniyoz qizi	
Raqamli to'lov tizimlarining naqd pulsiz iqtisodiyotga o'tishdagi o'rni	167
Jo'rabekova Xumora Muzaffar qizi, Saidov Rasul Boltabayevich	
Рост зеленой экономики во всем мире	172
Баймуродова Зилола Алишеровна, Бобуржон Бахриддинович Избосаров	
Raqamli iqtisodiyotda soliq boshqaruvining transformatsiyasi: soliq tizimining avtomatlashtirilishi samarasi	181
Xodjamov Asliddin O'ktam o'g'li, Maqsudov Bunyod Abdusamat o'g'li	
Problems and prospects of developing small business in uzbekistan under the conditions of a green economy	187
Baymuradova Zilola Alisherovna, Boburjon Bahriddinovich Izbosarov	
Turizm va mehmondo'stlikning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga ta'siri	197
Anvarova Muhsinaxon Otabek qizi	
Zamonaviy mehnat bozorida axborot asimmetriyasi va uning oqibatlari	203
Tojialiye Sherdorbek Elmurod o'g'li, Ergashev Axmadjon Maxmudjon o'g'li	
Mintaqa iqtisodiyotini rivojlantirishda xususiy tadbirkorlikni o'rni	206
Ergasheva Dilnoza Anvar qizi, Absamatov Asqar Ergashovich	
Ipoteka kreditlash tizimini takomillashtirishning amaliy yo'nalishlari	211
Almuratova Nurlio'lmasoy Naym qizi	



MINTAQA IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI O'RNI

**Ergasheva Dilnoza Anvar qizi**

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
Iqtisodiyot ta'lim yo'nalishi 2-kurs talabasi
edilnoza06@gmail. Com

Ilmiy rahbar:

Absamatov Asqar Ergashovich

Phd, Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
v.b. dotsenti, Moliya va turizm kafedrası

Annotatsiya: Mazkur maqolada mintaqqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda xususiy tadbirkorlikning tutgan o'rni, uning tashkiliy-huquqiy asoslari hamda mavjud muammolar tahlil qilingan. Statistik ma'lumotlar asosida kichik biznes va mikrofirmalar faoliyatining dinamikasi, ishbilarmonlik muhiti, investitsiyaviy imkoniyatlar va davlat tomonidan ko'rsatilayotgan qo'llab-quvvatlash choralari o'rganilgan. Shuningdek, marketing strategiyalari, moliyaviy vositalar va xalqaro tajribalar bilan qiyosiy tahlil asosida xususiy sektor samaradorligini oshirishga qaratilgan amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: xususiy sektor, tadbirkorlik, mintaqaviy iqtisodiyot, kichik biznes, ishbilarmonlik muhiti, iqtisodiy rivojlanish, soliq imtiyozlari, investitsiya, davlat qo'llab-quvvatlovi.

Abstract: This article analyzes the role of the private sector in ensuring sustainable regional economic development, with a focus on its organizational and legal foundations. Using statistical data, the study examines the dynamics of small businesses and micro-enterprises, the business environment, investment opportunities, and government support measures. Comparative analysis with international practices is used to develop practical recommendations aimed at enhancing the effectiveness of the private sector through improved marketing strategies and financial instruments.

Key words: private sector, entrepreneurship, regional economy, small business, business environment, economic development, tax incentives, investment, government support.

Аннотация: В данной статье рассматривается роль частного предпринимательства в устойчивом развитии региональной экономики, а также правовые и организационные аспекты его функционирования. На основе статистических данных проведён анализ динамики деятельности малых предприятий и микрофирм, состояния деловой среды, инвестиционного климата и мер государственной поддержки. Кроме того, на основе сравнительного анализа с международным опытом предложены практические рекомендации по повышению эффективности частного сектора с учетом маркетинговых и финансовых стратегий.

Ключевые слова: частный сектор, предпринимательство, региональная экономика, малый бизнес, деловая среда, экономическое развитие, налоговые льготы, инвестиции, государственная поддержка.

KIRISH

Bugungi kunda respublikamizda iqtisodiyotning lokomotivi sifatida kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik zamonaviy bozor iqtisodiyoti



sharoitida iqtisodiy faollikni oshirish, ish o'rinlarini ko'paytirish, aholi bandligini ta'minlash va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashda hal qiluvchi rol o'ynamoqda. Shu sababli, ushbu yo'nalishni rivojlantirishga davlatimiz iqtisodiy siyosatining strategik vazifasi sifatida qaralmoqda.

Mamlakatda qabul qilinayotgan qonunlar, Prezident farmon va qarorlari, hukumat dasturlari aynan kichik biznes subyektlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy asoslarini mustahkamlashga yo'naltirilgan. Bu esa kichik tadbirkorlik subyektlarining milliy iqtisodiyotdagi ulushi va rolining tobora ortib borishiga xizmat qilmoqda. Ushbu soha nafaqat iqtisodiy o'sish sur'atlarini jadallashtirishda, balki hozirgi davr uchun dolzarb hisoblangan yangi ish o'rinlarini yaratish, aholini ish bilan ta'minlash va turmush darajasini oshirish masalalarini hal etishda ham muhim o'rin tutmoqda.

Tadbirkorlik faoliyati (kichik tadbirkorlik) — tadbirkorlik subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir. Shu nuqtai nazardan, kichik tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, balki ijtimoiy-iqtisodiy muvozanatni ta'minlashda ham asosiy vositalardan biri hisoblanadi.

MAVZUGA DOIR ADABIYOTLAR TAHLILI

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi sifatida ilmiy doiradagi tadqiqotlarda keng yoritib kelinmoqda. So'nggi yillarda bu yo'nalishda olib borilgan tadqiqotlar, xususan, O'zbekiston sharoitida kichik tadbirkorlikning iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdagi roli va uni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini chuqur o'rganishga qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi (CER) tomonidan e'lon qilingan "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha tahliliy sharh"da kichik korxonalar sonining o'sishi, ularning sektorlar bo'yicha taqsimoti va investitsiya oqimlariga ta'siri bo'yicha muhim statistik tahlillar berilgan. Mazkur tahlilda kichik biznesning ayniqsa, xizmat ko'rsatish va savdo sohalarida yuqori sur'atda o'sayotganligi qayd etilgan (CER, 2022).

Xodiyev B.Yu. va boshqalar o'zlarining "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik" nomli o'quv qo'llanmasida kichik tadbirkorlikning tashkiliy-huquqiy shakllari, uning iqtisodiy funksiyalari va rivojlanish bosqichlari haqida asosli ilmiy tushunchalar berganlar. Mualliflar kichik biznesni bozor iqtisodiyotining moslashuvchan, tez rivojlanishga moyil va zamonaviy bozor talablariga moslashuvchi elementi sifatida baholaydilar (Xodiyev va boshq., 2010).

Yana bir muhim ilmiy manba sifatida Moliya instituti professori A.Ch. Boboyevning tadqiqotida kichik biznes rivojining nazariy asoslari, uni rag'batlantirishga qaratilgan fiskal va moliyaviy choralar chuqur yoritilgan. Muallif kichik tadbirkorlikni rivojlantirishda hududiy infratuzilmaning mavjudligi, soliq yukining engillashtirilishi va kredit resurslariga kirish imkoniyati asosiy omillar ekanini ta'kidlaydi (Boboyev, 2012).

Xalqaro miqyosdagi tajribalarni o'rganish ham ushbu sohani chuqur anglashga xizmat qiladi. Masalan, David Smallbone va Friederike Welter tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo mamlakatlarida kichik biznesni rivojlantirishning institutsional sharoitlari, reguliator muhit va kreditga ega bo'lish imkoniyatlari o'rganilgan. Ular kichik biznesning muvaffaqiyati ko'p jihatdan davlat siyosatining izchil qo'llab-quvvatlovchi mexanizmlariga bog'liq ekanini asoslaydilar (Smallbone & Welter, 2001).

Jahon banki tomonidan 2023-yilda chop etilgan "Uzbekistan Country Private Sector Diagnostic" hujjatida ham kichik biznes subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash, xususiy sektorni rag'batlantirish va soliq tartibotlarini soddalashtirish borasida amaliy tavsiyalar berilgan. Ushbu tahlillar kichik biznesni milliy iqtisodiyotning innovatsion va barqaror rivojlanishida muhim omil sifatida qarash zarurligini ko'rsatadi.

Surxandaryo viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni 2025-yil 1-yanvar holatiga 19,1 mingtani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,5 mingtaga yoki 7,2 %ga kamaygan. Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga 8,8 birlikni tashkil qildi.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan kichik tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash hamda ishbilarmonlik muhitini sifat jihatdan yaxshilash bo'yicha qabul qilingan qaror va farmonlar, shuningdek, bu sohaga berilayotgan katta e'tibor natijasida 2020–2024-yillarning yanvar–dekabr oylari davomida jami 25 291 ta kichik korxona va mikrofirma tashkil etildi.

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar sohalar kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p subyektlar savdo sohasida – 8 935 (yoki 35,3 %) ta, sanoat sohasida – 5 252 (yoki 20,8 %) ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 5 137 (yoki 20,3 %) ta, xizmat sohasida – 4 445 (yoki 17,6 %) ta va qurilish sohasida – 1 522 (yoki 6,0 %) tani tashkil etgan.




1-rasm Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida 2020-2024-yillar davomida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlik¹

2024-yil yanvar–dekabr oylarida Surxandaryo viloyatida ko'plab kichik korxona va mikrofirmalar yangidan tashkil etilgan.

2024-yil yanvar–dekabrda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirma savdo sohasida – 1 906 ta, sanoatda – 1 033 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 615 ta yangidan tashkil etilgan.

Viloyatning tumanlari va shaharlari kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p kichik korxona va mikrofirma Termiz shahrida – 909 ta, Denov tumanida – 531 ta va Jarqo'rg'on tumanida – 477 ta yangidan tashkil etilgan.

Xususan, so'nggi yillarda aholining keng qatlamini tadbirkorlikka jalb qilish va ularning daromad manbalarini kengaytirishga qaratilgan "Har bir oila — tadbirkor", "Yoshlar – kelajagimiz" va boshqa ijtimoiy dasturlar doirasida, shuningdek, "Har bir yoshga – bir gektar" loyihalari orqali imtiyozli kreditlar ajratilib, mingdan ziyod oilalarni qamrab olishga erishildi. Mazkur dasturlar hududlarda aholining tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi, uning turmush tarzini yaxshilash va ish bilan bandligini oshirish uchun turtki bo'lib xizmat qilmoqda.



2-rasm. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda²

¹ <https://www.surxonstat.uz/uz/>

² <https://www.surxonstat.uz/uz/>



Shu bilan birga, o'ttirilgan tajriba hamda xalqaro amaliyot kompleks va o'zaro bir-birini to'ldiruvchi kredit olish imkoniyatlaridan iborat bo'lgan yaxlit tizimni shakllantirishni taqozo etmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda ilmiy abstraksiyalash, guruhlash, qiyoslash, retrospektiv va istiqbolli tahlil, empirik tahlil hamda boshqa usullardan foydalanildi. Maqolada qiyosiy taqqoslash usuli asosida mintaqa iqtisodiyotini rivojlantirishda xususiy tadbirkorlikning tashkiliy-huquqiy asoslari mamlakatimizdagi mavjud asoslar bilan taqqoslanib, tegishli xulosalar shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlariga ko'ra, ushbu subyektlarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyati o'tgan yillarning mos davriga nisbatan yaxshilangan deb baholangan. Jumladan, 2020-yil IV choragida bunday fikr bildirgan korxonalar ulushi 64,6 %ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024-yilda 42,2 %ga tushgan. Bu esa 2020-yil IV choragiga nisbatan 22,4 %ga kamayganini ko'rsatadi. Mazkur holat iqtisodiy faollikning barqarorligi pasaygani, talab va taklif muvozanatining ayrim tarmoqlarda izdan chiqqani yoki tashqi omillar (global inflyatsiya, logistik muammolar va moliyaviy kirish imkoniyatlarining qisqarishi) ta'sirida yuzaga kelgan bo'lishi mumkin.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarishsiz deb baholagan korxonalar ulushi 2020-yil IV choragida 29,8 %ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024-yil IV choragida 44,8 %ga yetgan. Ya'ni 15,0 %ga oshgan. Bu esa tadbirkorlar tomonidan ehtiyotkorona qarashlarning kuchaygani, biznes muhitdagi noaniqliklar ortganini bildiradi. Korxonalar innovatsion yechimlarga o'tishga ehtiyotkorona yondashmoqda yoki mavjud sharoitda rivojlanishga emas, mavjud holatni saqlab qolishga urg'u bermoqda.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashgan deb hisoblagan korxonalar ulushi 2020-yil IV choragida 5,6 % bo'lgan bo'lsa, 2024-yil IV choragida bu ko'rsatkich 13,0 %ga yetib, 7,4 %ga oshgan. Bu salbiy dinamikani shakllantiruvchi omillar sifatida energetika va logistika xarajatlarining o'sishi, soliq yukining nisbiy ortishi, shuningdek, moliyalashtirishga kirish imkoniyatlarining kamayishi kabi ichki va tashqi omillarni ko'rsatish mumkin.

Tahlil shuni ko'rsatadiki, kichik biznes va mikrofirmalar sonining o'sishi, ularning faoliyat samaradorligining o'zgarishi faqat miqdoriy ko'rsatkichlar bilan emas, balki sifat jihatdan ham baholanishi lozim. Ishbilarmonlik muhiti faqat makroiqtisodiy ko'rsatkichlar emas, balki subyektiv baholashlar, bozor kayfiyati, regulyator siyosat va infratuzilma bilan bevosita bog'liq.

Ushbu tadqiqotni amalga oshirish jarayonida bir qator muhim savollar yuzaga keldi va ularga quyidagicha asosli javoblar shakllantirildi:

O'zbekistonda tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qanday ishlarni amalga oshirish kerak?

Tadbirkorlarga marketing strategiyalarini ishlab chiqishda qanday ko'mak berish lozim?

Xususiy tadbirkorlik rivojlanish samaradorligini oshirish uchun qanday chora-tadbirlar ko'rish zarur?

Tadqiqot davomida ushbu savollarga tahliliy yondashuv asosida quyidagi xulosalar shakllantirildi: hududiy infratuzilmani modernizatsiya qilish, soliq va kredit siyosatini yanada liberallashtirish, biznes-inkubatorlar va ko'maklashuvchi markazlar tarmog'ini kengaytirish orqali xususiy tadbirkorlik subyektlari faoliyatining barqarorligini ta'minlash mumkin. Bundan tashqari, tadbirkorlar uchun raqamli savodxonlik va marketing bo'yicha treninglar, xalqaro ko'rgazmalar va platformalarga kirish imkoniyatini yaratish orqali ularning raqobatbardoshligini oshirish ham muhim yo'nalishlardan biridir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik O'zbekistonning barqaror iqtisodiy rivojlanishida hal qiluvchi o'rin tutmoqda. Tanlanma kuzatuvlar asosida aniqlangan statistik ma'lumotlar kichik tadbirkorlik subyektlarining makroiqtisodiy muhitdagi o'zgarishlarga nisbatan sezuvchanligini, ularning ishbilarmonlik muhiti haqidagi subyektiv baholari orqali yaqqol namoyon bo'lishini tasdiqladi.

Shuningdek, xalqaro tajribada (OECD, UNCTAD, IFC kabi tashkilotlar tadqiqotlariga ko'ra) kichik biznes subyektlarini qo'llab-quvvatlashda quyidagi tamoyillar asosiy omil sifatida tan olingan: barqaror moliyalashtirish, inklyuziv o'sish, raqamli inklyuziya, fiskal imtiyozlar va institutsional soddalik. O'zbekistonda ham mazkur yo'nalishlarda ijobiy siljishlar kuzatilayotgan bo'lsa-da, mavjud natijalarni mustahkamlash va tizimlashtirish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

Shu asosda, xalqaro standartlarga muvofiq quyidagi tavsiya va takliflar ishlab chiqildi:



Raqamli infratuzilmani kengaytirish. Kichik biznes uchun qulay raqamli xizmatlar (masalan, e-hisob, onlayn soliq deklaratsiyasi, kredit scoring tizimi)ni joriy etish orqali operatsion samaradorlikni oshirish lozim.

Moliyaviy inkluziya va ESG prinsiplariga asoslangan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kengaytirish. Past foizli kreditlar, ESG (Environmental, Social, Governance) ko'rsatkichlariga asoslangan grantlar va xususiy sektorni moliyaviy risklardan himoyalovchi kafolat mexanizmlari joriy qilinishi tavsiya etiladi.

Kichik biznes uchun eksport salohiyatini rivojlantirish. Mahalliy tadbirkorlarning global yetkazib berish zanjirlariga qo'shilishi uchun logistika infratuzilmasini takomillashtirish, eksport kafolatlari va xalqaro sertifikatlash xizmatlarini subsidiyalash zarur.

Inson kapitaliga sarmoya kiritish. Tadbirkorlar uchun zamonaviy biznes-ko'nikmalar (marketing, moliyaviy savodxonlik, digital skills) bo'yicha modulli ta'lim va mentorlik dasturlarini kengaytirish kerak.

Normativ-huquqiy muhitni liberallashtirish. Kichik tadbirkorlik subyektlari uchun hisobot berish, litsenziyalash va soliq tartibotlarini soddalashtirish orqali ularning rasmiy sektor bilan integratsiyasini kuchaytirish muhim.

Tarmoq va klasterlashuv siyosatini rivojlantirish. Kichik biznes subyektlarini klasterlash asosida ixtisoslashtirish, ularni sanoat zonalari va innovatsion hududlarga birlashtirish orqali sinergetik natijalarga erishish mumkin.

Barqarorlik va yashil iqtisodiyot tamoyillarini integratsiyalash. SDG (Sustainable Development Goals) doirasida ekologik barqarorlikka yo'naltirilgan ishlab chiqarishni rag'batlantirish – ekologik toza texnologiyalarga o'tish va uglerod izini kamaytirish bo'yicha imtiyozlar berish lozim.

Xalqaro hamkorlikni kengaytirish. BMT, UNDP, ITC, JICA va boshqa xalqaro moliyaviy va texnik institutlar bilan loyihaviy hamkorlik asosida kichik biznesni qo'llab-quvvatlovchi mexanizmlarni kuchaytirish tavsiya etiladi.

Ushbu takliflarning amaliyotga tatbiq etilishi O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiyotdagi rolini yanada mustahkamlashga, barqaror va inkluziv rivojlanish tamoyillariga asoslangan iqtisodiy modelni shakllantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni. <http://turkiston.uz> (murojaat sanasi: 2020-yil 12-mart).
2. Xodiyev B.Yu., Qosimova M.S., Samadov A.N. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik. O'quv qo'llanma. – Toshkent: TDIU, 2010.
3. Boboyev A.Ch. Tadbirkorlik faoliyati rivojlanishining nazariy jihatlar va ustuvor yo'nalishlari. Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya. – Toshkent, 2012. – 20 b.
4. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi rasmiy veb-sayti: www.stat.uz (murojaat sanasi: 2025-yil 3-iyul).
5. Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi veb-sayti: www.cer.uz (murojaat sanasi: 2025-yil 3-iyul).
6. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi rasmiy sayti: www.mineconomy.uz (murojaat sanasi: 2025-yil 3-iyul).
7. Makroiqtisodiy tadqiqotlar va prognozlash instituti sayti: www.ifmr.uz (murojaat sanasi: 2025-yil 3-iyul).
8. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi: www.lex.uz (murojaat sanasi: 2025-yil 3-iyul).
9. Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasining rasmiy sayti: <https://www.surxonstat.uz/uz/> (murojaat sanasi: 2025-yil 3-iyul).
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-apreldagi "Tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-208-son qarori. www.lex.uz (murojaat sanasi: 2025-yil 3-iyul).



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

6-Maxsus son. Bakalavr talabalarining maqolalari to'plami

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>